

**O’ZBEKISTONDA HOZIRGI KUNDA XORIJY TILLARNI O’QITISHGA
BO’LGAN E’TIBOR**

Sa’dullayeva Madinabonu
*O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti
talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada hozirgi kunda chet tillarini o’qitish va o’rganish dolzarb vazifalardan biriga aylanib ulgurganligi va dunyo rivojlanib borgan sari bugungi yosh avlod zimmasiga yanada ulkan mas’uliyat yukланмоқда. Maqolada Respublikamizda ta’lim sohasidagi ko’plab o’zgarishlar haqida qisqacha yoritib berilgan.*

Kalit sozlari: *ma’lim, chet tillari, bilim, o’qitish, pedagogika, texnologiya.*

Davlatimiz jahondagi eng ilg’or va yetuk bilimga ega mamlakatlar qatoriga qo’shilmoqda. Eng avvalo shuni ta’kidlab o’tish kerakki, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, birinchi navbatda, biz yoshlар uchun foydalidir. Ayniqsa, oxirgi besh yilda yurtimizda ko’plab islohotlar amalga oshirildi. Joriy etilayotgan imkoniyatlardan yoshlар unumli foydalanishi uchun maktab, kollej, litsey hamda oliy ta’lim muassasalari ilmiy texnik vositalar hamda ko’plab adabiyotlar bilan ta’milanmoqda. “Shuni unutmaslik kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo’lishi, farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog’liq”, - deya ta’kidlagan edi Birinchi Prizidentimiz I.A. Karimov.

Xususan, chet tillarini o’qitishga hamda o’rganishga bo’lgan talab tobora ortib bormoqda. Shu sababli, mamlakatimiz ko’plab xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik aloqalarini yo’lga qo’ydi. Yurtimizda chet tillariga ixtisoslashtirilgan universitetning bo’lishi ham gapimning yaqqol isbotidir. Yurtimizning xorijiy davlatlar bilan ta’lim to’g’risidagi hamkorligi biz yoshlarga ulkan marralarga erishish uchun boshlang’ich qadam desam mubolag’a bo’lmaydi. Ta’lim tizimini bugungi kun talablariga va jahon standartlariga javob beradigan darajaga keltirish hamda ilm-fan sohasida tub burilishlar yasashni o’z oldimizga maqsad qilib qo’yganmiz.

Butun jahon sivilizatsiyasi bilan tanishish, ular bilan hamnafas bo’lish uchun eng asosiy aloqa vositasi xorijiy tillarni mukammal o’rganishdir. Mamlakatimizda chet tillarini o’qitishda ilg’or pedagogik texnologiyalardan foydalanilmoqda, o’quv jarayoni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilmoqda. Xususan, ingliz tilini o’qitish bo’yicha chet ellik mutaxassis Richard Uest (Buyuk Britaniya) O’zbekistonda ta’limning barcha bosqichlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilayotganini ta’kidladi. Bu oliy ta’lim muassasalarining o’quv dasturlarini xalqaro standartlarga muvofiq modernizatsiyalash va takomillashtirish bo’yicha tajriba almashish imkonini berdi. Muntazam ta’lim tizimining barcha bosqichlarida rivojlanib kelayotgan yosh avlodni xorijiy tillarga o’qitish sifatini ta’minalash, xorijiy tillarda erkin so’zlasha oladigan kadrlarni tayyorlash tizimini tubdan rivojlantirish, ushbu yo’nalishdagi o’quv dasturlarining sifatliligi va uzlusizligini ta’minalash, xorijiy tillarni bilish darajasini baholash milliy test tizimini takomillashtirish asosida malaka



sertifikatiga ega bo'lgan o'quvchilar, talabalar va pedagoglarga imtiyozlar berish hamda ularni rag'batlantirish amalga oshmoqda.

Eng avvalo, chet tillariga ixtisoslashgan maktab va xorijiy tillarni o'rganishga qiziqishi bor maktab o'quvchilarini o'zining til sohasi bo'yicha rivojlangan davlatlarga safar va qisqa davrlik ta'lif sayohatlarini yo'lga qo'yilishi lozim. Bu davrdagi sayohat grant va shartnoma asosida bo'lib, grant yutib olgan yoshlarning barcha harajatlari davlat tomonidan to'liq qoplanadi. Xorijiy mamlakatlarga borgan yoshlarning bilimlari faqat nazariy bo'lib qolmay, amaliyatda sinab ko'rishga ham imkoniyat beradi. Shuningdek, yurtimizda chet tillarini o'qitish bog'cha yoshidan bolalarga singdirilmoqda. Ya'ni yoshligidan bolalarga o'z ona tili bilan birgalikda xorijiy tillarni xususan, ingliz, rus, koreys hamda ko'plab chet tillarini misol qilib keltirish mumkin. Shuning uchun ham ta'lif tizimida dars jarayoniga zamonaviy texnologiyalar, o'qitishning yangi usullari keng tatbiq qilinmoqda. Yurtboshimiz biz yoshlarga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Buning isboti sifatida hozirgi kunda yaratilgan o'qitish tizimining yaxshilanishi hamda chet tillarini o'rganish uchun kurslar tashkil etilganini ta'kidlash mumkin. Ingliz tilini o'rganishni maqsad qilgan inson o'zi uchun inglizcha muhit yaratishi, ya'ni doimo inglizcha tinglab, o'qib, yozib va gapirishi maqsadga erishishning eng samarali usulidir.

Xulosa o'rnida shuni aytishim lozimki, chet tillarini o'rganish xususan, ingliz tilini bilish har qanday inson uchun ko'plab imkoniyatlar eshigini ochadi. Nafaqat ingliz tili balki rus, koreys hamda boshqa xorijiy tillarni o'rganish juda ham foydalidir. Bu o'rinda xalqimizning "til bilgan el biladi" degan maqoli o'z isbotini topadi. Shunga doir islohotlar yurtimizda amalga oshirilgani biz yoshlarni quvontiradi. Har bir inson o'zi uchun chet tillaridan hech bo'limganda bittasini o'rgansa foydadan holi bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida: - T.:O'zbekiston 2013.- 316-b
2. Karimov I. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch: - T.: O'zbekiston 2008.- 205-b
3. <https://lex.uz>
4. <https://uza.uz>
5. <https://uz.m.wikipedia.org>